

SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Egamova Ravshanoy Surobjonovna

Qo'qon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ilmiy rahbar: Shirinov Muzaffar Kucharovich –

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22792825>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarning didaktik ta'minotini takomillashtirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda sinfdan tashqari faoliyatning mazmuni, shakllari va metodlarini o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga yo'naltirishning pedagogik imkoniyatlari asoslanadi. Ijodkorlikni baholashda originallik, moslashuvchanlik, mustaqillik va ijodiy mahsuldorlik mezonlari hamda ularga mos faoliyat deskriptorlaridan foydalanish taklif etiladi. Loyiha asosida ishlash, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, interfaol usullar, refleksiv mashqlar va fanlararo integratsiya sinfdan tashqari ishlarning didaktik ta'minotini boyituvchi vositalar sifatida qoraladi. Tajriba-sinov natijalari takomillashtirilgan metodik tizimning amaliy samaradorligini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, ijodkorlik, ijodiy tafakkur, didaktik ta'minot, kreativ topshiriq, loyiha, muammoli vaziyat, refleksiya, individuallashtirish, fanlararo integratsiya

Аннотация: В данной статье освещается вопрос совершенствования дидактического обеспечения внеклассной работы в развитии творческих навыков учащихся. В исследовании обосновываются педагогические возможности направленности содержания, форм и методов внеклассной деятельности на развитие творческого мышления, самостоятельности и инициативности учащихся. Для оценки творческих способностей предлагается использовать критерии оригинальности, гибкости,

самостоятельности и творческой продуктивности, а также соответствующие им дескрипторы деятельности. Проектная работа, проблемные ситуации, творческие задания, интерактивные методы, рефлексивные упражнения и междисциплинарная интеграция рассматриваются как средства обогащения дидактического обеспечения внеклассной работы. Результаты экспериментальной работы показали практическую эффективность усовершенствованной методической системы.

Ключевые слова: внеклассная работа, творчество, творческое мышление, дидактическое обеспечение, творческое задание, проект, проблемная ситуация, рефлексия, индивидуализация, междисциплинарная интеграция

Abstract: This article addresses the issue of improving the didactic support of extracurricular activities for developing students' creative skills. The study substantiates the pedagogical potential of directing the content, forms, and methods of extracurricular activities toward the development of students' creative thinking, independence, and initiative. To assess creativity, the study proposes the use of the criteria of originality, flexibility, independence, and creative productivity, along with corresponding activity descriptors. Project-based learning, problem situations, creative tasks, interactive methods, reflective exercises, and interdisciplinary integration are considered as means of enriching the didactic support of extracurricular activities. The results of the experimental study demonstrated the practical effectiveness of the improved methodological system.

Keywords: extracurricular activities, creativity, creative thinking, didactic support, creative task, project, problem situation, reflection, individualization, interdisciplinary integration

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchining tayyor bilimni o'zlashtirishi bilan bir qatorda, mustaqil fikrlashi, yangi g'oya ilgari surishi, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishi va o'z faoliyati natijasini tahlil qila olishi muhim pedagogik

vazifalardan biridir. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish faqat dars jarayoni bilan chegaralanmay, sinfdan tashqari faoliyatni ham maqsadli tashkil etishni talab etadi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchiga erkinroq ijodiy muhitda faoliyat yuritish, o'z qiziqishlarini namoyon qilish, jamoa bilan hamkorlik qilish va individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi.

Tadqiqotda sinfdan tashqari ishlarning didaktik ta'minoti o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mazmun, metod, vosita, tashkiliy shakl va baholash mexanizmlarining o'zaro bog'langan tizimi sifatida takomillashtirilgan. Mazkur yondashuvda pedagogik, psixologik, ijtimoiy-madaniy va metodik omillar hisobga olinib, ular motivatsion, kognitiv, faoliyatli hamda refleksiv o'zgarishlar bilan bog'langan.

Tadqiqotning maqsadi sinfdan tashqari ishlar asosida o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot predmeti sinfdan tashqari ishlar asosida 5–6-sinf o'quvchilarining ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining mazmuni, metodlari, usullari, vositalari hamda tashkiliy shakllarini qamrab oladi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatuv, so'rovnoma, suhbat, tajriba-sinov ishlari hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Ushbu metodlar orqali sinfdan tashqari faoliyatning o'quvchilar ijodkorligiga ta'siri aniqlangan, mavjud holat tahlil qilingan va takomillashtirilgan metodik tizimning natijalari qiyosiy o'rganilgan.

Tadqiqotning metodologik yo'nalishida o'quvchining faol subyekt sifatidagi ishtiroki, individual xususiyatlarni hisobga olish, ijodiy faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish va natijani refleksiv baholash tamoyillari asosiy o'rin tutadi. Bunda o'quvchi ijodiy muammoni anglashdan mustaqil g'oya yaratish, muqobil yechimlarni izlash va yakuniy ijodiy mahsulotni yaratishgacha bo'lgan faoliyatga jalb etiladi.

Tadqiqotda o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini baholash uchun to'rtta asosiy mezon belgilangan: originallik, moslashuvchanlik, mustaqillik va ijodiy

mahsuldorlik. Ushbu mezonlar sinfdan tashqari faoliyat jarayonida kuzatiladigan aniq faoliyat deskriptorlari orqali operatsionallashtirilgan.

Mezon	Asosiy ko'rsatkich	Faoliyat deskriptori
Originallik	Yangi g'oya ilgari surish	Muammoni odatiy bo'lmagan usulda ifodalash va yangi fikr taklif qilish
Moslashuvchanlik	Muqobil yechimlar topish	Bir muammo uchun bir necha yechim variantlarini ishlab chiqish
Mustaqillik	Ijodiy topshiriqni mustaqil bajarish	Vazifani tashqi yordamni kamaytirgan holda bajarish
Ijodiy mahsuldorlik	Natijani asoslash	Yaratilgan mahsulot yoki yechimni izohlash, tahlil qilish va takomillashtirish

Mazkur mezonlar bo'yicha rivojlanish darajalari past, o'rta, yaxshi va yuqori ko'rinishida differensial tavsiflangan. Baholashni faoliyat mazmuni va yakuniy ijodiy mahsulot bilan funksional bog'lash o'quvchi rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqroq kuzatish imkonini beradi.

Sinfdan tashqari ishlarning takomillashtirilgan metodik tizimi. Takomillashtirilgan metodik tizim maqsadli, mazmunli, jarayonli va natijaviy komponentlarning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi. Maqsadli komponent o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq pedagogik maqsadlarni belgilaydi. Mazmunli komponent ijodiy topshiriqlar, hayotiy vaziyatlar, badiiy matnlar, axloqiy muammolar, loyiha va refleksiv mashqlarni qamrab oladi. Jarayonli komponentda individual, juftlik va guruhli faoliyat,

muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar va ijodiy loyihalashdan foydalaniladi. Natijaviy komponent esa o'quvchining ijodiy mahsuloti, mustaqil fikri, muqobil yechimi va refleksiv xulosasi orqali aniqlanadi.

Metodik tizimning muhim jihati — ijodiy faoliyatni bir martalik topshiriq sifatida emas, balki bosqichli jarayon sifatida tashkil etishdir. Avvalo muammo yoki vaziyat anglatiladi, keyin o'quvchi g'oya ishlab chiqadi, muqobil yechimlarni qidiradi, ijodiy mahsulot yaratadi va yakunda o'z faoliyatini tahlil qiladi. Shu tariqa ijodiy fikrlashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv jihatlari izchil rivojlantiriladi.

Interfaol metodlar va fanlararo integratsiya. Sinfдан tashqari mashg'ulotlarda “Xatoni top”, “Grafik test”, “Olti shlyapa”, “Blits-o'yin”, “Birgalikda”, “Osh pishiramiz” kabi interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi. Masalan, “Xatoni top” usulida o'quvchi matn, gap yoki axloqiy vaziyatdagi muammoni aniqlaydi va uni tuzatishning muqobil variantini taklif qiladi. “Grafik test” orqali fikrni grafik yoki vizual shaklda ifodalash, “Olti shlyapa” orqali esa bir vaziyatga turli nuqtayi nazardan qarash imkoniyati yaratiladi.

Fanlararo integratsiya sinfdan tashqari faoliyat mazmunini boyitadi. Ona tili, adabiyot va tarbiya fanlarini bog'lash orqali o'quvchi badiiy matnni tahlil qiladi, voqeani hayotiy vaziyat bilan qiyoslaydi, qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildiradi va ma'naviy-axloqiy xulosa chiqaradi. Tarix bilan integratsiya esa tarixiy shaxslar va voqealar asosida ijodiy savollar, loyiha topshiriqlari va muammoli vaziyatlarni tashkil etishga yordam beradi.

Raqamli va ijodiy ifoda vositalaridan foydalanish ham metodik tizimning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Matn tahriri, multimedia materiallari va vizual taqdimotlar o'quvchilarning fikrni aniq, izchil va ijodiy ifodalashiga xizmat qiladi.

Ijodkorlikni rivojlantirishda barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi topshiriq berishdan ko'ra, ularning qiziqishi, tayyorgarligi va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Shu sababli sinfdan tashqari

mashg'ulotlarda differensial topshiriqlar, tanlov asosidagi vazifalar va individual ijodiy yo'nalishlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Rag'batlantiruvchi pedagogik muhit o'quvchining xato qilishdan qo'rqmasdan fikr bildirishiga, o'z g'oyasini himoya qilishiga va yangi variantlarni sinab ko'rishiga sharoit yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi faqat tayyor javobni baholovchi emas, balki ijodiy jarayonni yo'naltiruvchi va refleksiyaning tashkil etuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

Sinfdan tashqari to'garak va tanlovlar, jumladan, "Ijodkorlar klubi", "Zakovatli kitobxon", "So'z sehri", "Yosh adiblar", "Yosh tafakkur va ijod" kabi yo'nalishlar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tizimli davom ettirish uchun tashkiliy imkoniyat yaratadi.

Tajriba-sinov natijalari:

Tadqiqot tajriba-sinov ishlari Farg'ona, Jizzax, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami 543 nafar o'quvchi ishtirokida tashkil etilgan. Shundan 263 nafari tajriba guruhiga, 280 nafari nazorat guruhiga kiritilgan.

Guruh	Bosqich	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	Boshlanishi	59	117	87
Tajriba	Yakuniy	105	136	22
Nazorat	Boshlanishi	68	118	94
Nazorat	Yakuniy	77	127	76

Jadvaldan ko'rinadiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi o'quvchilar soni 59 nafardan 105 nafarga oshgan, past darajadagi o'quvchilar soni esa 87 nafardan 22 nafargacha kamaygan. Nazorat guruhida yuqori daraja 68 nafardan 77 nafarga, past daraja esa 94 nafardan 76 nafarga o'zgargan.

Tadqiqotda keltirilgan matematik-statistik tahlilga ko'ra, tajriba guruhidagi o'rtacha ko'rsatkich yakunida nazorat guruhiga nisbatan 13,6 foiz yuqori bo'lgan. Bu natija takomillashtirilgan metodik tizim doirasida tashkil etilgan sinfdan tashqari

faoliyatning o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi amaliy natijasini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va tashkiliy shakllarini ijodkorlikni rivojlantirish maqsadiga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Oddiy reproduktiv topshiriqlardan farqli ravishda, muammoli vaziyat, loyiha, ijodiy yozuv, vizual ifoda va refleksiv tahlilga asoslangan vazifalar o'quvchini faol fikrlashga jalb etadi. Ayniqsa, vazifada bir nechta maqbul yechim mavjud bo'lishi o'quvchining moslashuvchan fikrlashini namoyon etishiga imkon beradi.

Tizimning yana bir muhim jihatini baholash mezonlarining ijodiy faoliyatning real ko'rinishlari bilan bog'langanidir. Yangi g'oya ilgari surish, muqobil yechim topish, topshiriqni mustaqil bajarish va natijani asoslash kabi deskriptorlar o'quvchi ijodkorligini faqat yakuniy mahsulot orqali emas, balki faoliyat jarayoni orqali ham kuzatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sinfdan tashqari faoliyatni samarali tashkil etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi, topshiriqlarni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim tashkiliy omillar hisoblanadi.

XULOSA

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarda ijodiy fikrlash, kuzatish, tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va o'z fikrini asoslash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatga ega. Ularning didaktik ta'minotini takomillashtirish mazmun, metod, vosita, tashkiliy shakl va baholash mexanizmlarini yagona tizim sifatida tashkil etishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, loyiha asosida ishlash, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, interfaol metodlar, fanlararo integratsiya, individuallashtirish va refleksiv mashqlarni tizimli qo'llash o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tajriba-sinovdagi 543 nafar o'quvchi natijalari

asosida tajriba guruhining yakuniy o'rtacha ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 13,6 foiz yuqori bo'lgan.

Shu asosda umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda ijodiy loyihalar va to'garaklarni kengaytirish, fanlararo topshiriqlardan foydalanish, o'quvchilarning individual ijodiy trayektoriyasini hisobga olish va faoliyat natijalarini aniq mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq.

Amaliy tavsiyalar

- Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda loyiha asosidagi ijodiy topshiriqlarni muntazam qo'llash.
- O'quvchilarning qiziqishiga mos ijodiy to'garak va tanlovlarni tashkil etish.
- Ona tili, adabiyot, tarbiya va tarix fanlari mazmunini integratsiyalovchi ijodiy vazifalarni ishlab chiqish.
- Muammoli vaziyat, interfaol metod va refleksiv mashqlarni bir mashg'ulot doirasida bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish.
- Ijodkorlikni originallik, moslashuvchanlik, mustaqillik va ijodiy mahsuldorlik mezonlari asosida kuzatish va baholash.
- Ota-onalar bilan hamkorlikda uy sharoitida o'qish, ijodiy yozuv va kichik loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamova R.S. O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarning didaktik ta'minotini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Qo'qon davlat universiteti, 2026.
2. Egamova R.S. Texnologiya ta'limini amalga oshirishda sinfdan tashqari ishlarning ilmiy-nazariy asoslari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2024. №10. B. 170–174.
3. Egamova R.S. Ta'limda texnologiyani amalga oshirishda sinfdan tashqari ishlarning didaktik ta'minotini takomillashtirish (boshlang'ich ta'lim misolida) // Zamonaviy ta'lim. 2024. №7(140). B. 45–50.

4. Egamova R.S. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida sinfdan tashqari ishlarning didaktik ta'minotini amalga oshirish modelini ishlab chiqish // Zamonaviy ta'lim. 2025. №3(148). B. 54–60.
5. Egamova R.S. Psychological-Motivation Model for Improving Technology Education in The Primary Grades // International Journal of Scientific Trends. 2025. Vol. 4, No. 7. P. 52–60.
6. Egamova R.S. Developing Creative Activity of Primary School Students Through Extracurricular Activities // Academicus Journal of Research. 2026. Vol. 1, No. 3. P. 254–259.
7. Dewey J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
8. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
9. Marzano R.J. The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction. ASCD, 2007.
10. Piaget J. Psychology and Pedagogy. Viking Press, 1970.